

## BUYUK ALLOMALAR QARASHLARIDA BARKAMOLLIK MASALALARI

**Artiqova Adolat Ataboyevna**

*NDKTU akademik litseyi*

*tarix fani o`qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Buyuk allomalar qarashlarida barkamollik masalalari haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *buyuk allomalar, barkamollik masalalari, Avesto, «Temur tuzuklari».*

*«Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir. Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy manaviy merosiga tayanamiz»*

**Shavkat Mirziyoyev**

Mamlakatimiz tashlayotgan xar bir qadam, amalga oshirilayotgan har bir islohotlar zamirida barkamol avlod orzusi mujassam. O'zbekiston yoshlarining shijoati, aqlu zakovati, jismoniy va ma'naviy kamolot, xarakat va intilishlari ezgu maqsadlarining bosh omilidir.

Shunday ekan, O'zbekistonni yanada obod, xalqimizni baxtli-saodatli qilishdek muqaddas va zalvori keng vazifalarni bajaradigan barkamol avlodni shakllantirish davr talabidir. Bu borada esa bizga mutafakkirlardan qolgan ma'naviy meros katta yordam beradi. Ularning ma'naviy merosida komil inson g'oyasi, barkamol avlod tarbiyasi, jamiyatda ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish muammosi alohida o'rin tutadi. Bu borada qadimiy manba hisoblangan «Avesto» asari, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Abulqosim Zamahshariy, Ahmad YAssaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlarimizning ma'naviy-axloqiy ta'limotlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Ajdodlarimizning buyuk ma'naviy merosi bo'lgan, o'zining falsafiy g'oyalari bilan bugungi kunga qadar xizmat qilib kelayotgan «Avesto»dan boshlab odil jamiyat qurish, ezgulikni ulug'lovchi va qabohatni qoralovchi falsafiy, mafkuraviy mushohadalar, poklik va yaxshilikdan saboq beruvchi g'oyalar jamiyat va inson hayotining omili ekani yorqin ifodalangan. Bu esa, «Avesto»ning milliy g'oya va mafkuramizning asoslaridan biri - milliy merosimizning mustahkamlanishiga xissa qo'shuvchi dastlabki manba ekanligini isbotlaydi.

«Avesto»dagi ontologik, gnoseologik ta'limotlar, panteistik qarashlarda yaxshi niyat, adolat, diyonat, qudrat, iroda kabi sifatlar aks etgan. «Avesto»dan keyin uch ming yillik taraqqiyotni bosib o'tgan inson tafakkuri demokratik taraqqiyot va unga olib keluvchi g'oyalarga ana shu kitobning mohiyatida yotgan ma'naviy stimullar orqali yetib keldi.

Ular moddiylik va ma'naviylikning uyg'un holda rivojlanishi, taraqqiyoti va kelajagi uchun garov bo'lgan omillar sifatida rol o'ynaydi.

Mutafakkir bobolarimiz asarlarida inson va uning ma'naviy olami jamiyat hayotining ustuvor amallari sifatida qaraladi. Sharq mutafakkirlari al-Farobiy, Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Axmad Yugnakiy, Yusuf Xos Xojiblarining qarashlarida odil jamiyat qurish haqidagi g'oyalarning shakllanishiga inson hayoti va kamolotidagi dastlabki ilmiy-falsafiy ko'rinishi turlicha talqin etiladi. Jumladan, Forobiy milliy g'oya va mafkuraning asosiy manbalaridan bo'lgan qadriyatlar tizimiga kiruvchi – fozil davlat, adolatparvarlik, teng huquqlilik kabi fazilat va xususiyatlari haqidagi o'zining fikrlarini bildiradi Abu Nasr Forobiy inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U aql va maqsad insonni o'zining so'nggi kamolotiga erishuviga vosita bo'luvchi asosni hozirlaydi va boshqalar bilan aloqada bo'lishi, ularning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi, deydi. Ana shu jarayonda insonda fazilatlarini kamol toptirish haqida ta'kidlab quyidagi fikrlarni ilgari suradi, «Inson fazilatlar bilan kamolotga yetadi va kamolotga yetgan odam baxtli hisoblanadi»

Abu Rayhon Beruniy inson tarbiyasiga salbiy ta'sir qiluvchi illatlar haqida fikr yurita turib, ular ko'p hollarda yovuz niyatda qilinishini qayd etadi.

Unga hamohang tarzda Ibn Sino esa bunday illatlarni bartaraf etishda tarbiya omiliga tayanishni ta'kidlaydi. Ibn Sino «Insonlar o'rtasida o'zaro kelishuv zarur bo'lib, bu kelishuv tufayli adolat qoidalari va qonunlari o'rnatiladi. Qonunshunos esa bu qoidalarga bajarilishi shart bo'lgan majburiyat tusini beradi» deb hnlaydi. Demak, har qanday jamiyat, davlat ma'lum adolatni himoya etuvchi huquqiy qonunlar asosida idora etilishi, adolatsizlikka yo'l qo'ymasligi kerak va shundagina millat buyuklikka erishadi, degan fikrlarni ilgari suradi.

Yusuf Xos Hojib «Kamolotga yetish yo'li ikkita: bilim olish va ibrat o'rganish», – deb inson ma'naviy-axloqiy ongining falsafiy mohiyatini ochib beradi. U o'z davridagi odil jamiyatning siyosiy-iqtisodiy tizimini birma-bir ta'riflab, unda millat birligini jamiyat va davlat taraqqiyotini ta'minlovchi kuch deb e'tirof etadi. Barkamol insonni tarbiyalash, adolatparvarlik, insonparvarlik haqidagi g'oyalar Temur va temuriylar davrida ham o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lgan. Amir Temur davlat tizimini mustahkamlashga, mayda va tarqoq feodalliklarni birlashtirishga harakat qildi va shu asnoda adolatli jamiyat barpo etishning o'ziga xos ko'rinishini yaratdi. Sohibqiron Amir Temurning «Temur tuzuklari» yoshlar ongiga ta'sir qila oladigan targ'ibot vositasi hisoblanadi. Unda sohibqiron qadrlagan, hayotda o'zi amal qilgan va atrofidagi barcha insonlarga tavsiya etgan insoniy fazilatlar haqida nodir fikrlar bitilgan. «Temur tuzuklari»da ezgu fazilatli shaxslarni qadrlash bilan birgalikda, illatlarni kasb qilgan insonlarni tartibga chaqirilgani va agar uddalab bo'lmasa, jazo qo'llangani yoziladi. Taniqli pedagog olimlarimizdan Muhammadjon Quronov Amir Temur haqida yozar ekan, Sohibqiron Amir Temur o'zining «Temur tuzuklari»da «Azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir», degan hayotiy xulosaga kelganini hamda

o'z tajribasiga tayanib, besh fazilat sohiblarini atrofiga to'plab, maqsadlariga erishganini ta'kidlaydi. Haqiqatan ham, Amir Temur ochko'z, ziqna, yovuz va nafsi yomonlarni yoqtirmasdi. «Qaysi bir sipohiy tuz haqi va vafodorlikni unutib, – deyiladi «Temur tuzuklari»da, – xizmat paytida o'z sohibidan yuz o'girib, huzurimga kelgan bo'lsa, unday odamni o'zimga eng yomon dushman deb bildim. CHunonchi, To'xtamishxon bilan bo'lgan urushda uning amirlari menga har turli xabar va shikoyatlar yozib, o'z hukmdori, ya'ni mening dushmanim bo'lmish To'xtamishxon bergan tuz haqini unutdilar, vafodorlik va haq-huquqni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, huzurimga panoh istab kelganlari uchun ularni la'natladim, o'zimga «bular o'z xojasiga vafo qilmagach, menga qilarmidi?» deb o'yladim». Mana shu Amir Temurning va u yashagan davrdagi milliy ma'naviyatimizning yorqin namunasi emasmi!? Axloqiy fazilatlar haqida o'zining falsafiy fikrlarini bayon qilgan Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asari ma'naviy boylik durdonalari qatoriga kiritiladi. Unda ham ajdodlarimiz ma'naviyatining yorqin namunalari aks ettirilgan. Masalan, «Boburnoma»da temuriy hukmdor Umarshayx Mirzoning naqadar adolatli va halol inson bo'lganligini ko'rsatuvchi bir ma'lumot keltirilgan. Bir yili Xitoydan Farg'onaga kelayotgan ming kishilik karvon O'sh tog'larida qor ko'chkini ostida qolib halok bo'lgan. Umarshayx Mirzo darhol odamlarini yuborib, karvonning yuklarini nazorat ostiga oldirgan. Egallari halok bo'lgan shu mollarni ikki yildan ziyod ehtiyotlab, saqlatgan. Xuroson va Samarqandga maxsus odam yuborib, karvon egalarining merosxo'rlarini toptirgan va ularni o'z mamlakatiga chaqirtirib, mollarini to'laligicha qo'llariga topshirgan. Bunday misollarni o'tmishdagi oddiy odamlar hayotidan ham keragicha keltirish mumkin. Hozirgi davrda ham hayotimizda shunday ezgu tushunchalar barqaror va ustuvor. Bunday misollar ma'naviyatimizning milliy-etnik asoslari mustahkam ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tariximizning boyligi, bugungi kunda yoshlarga yaratib berilayotgan sharoitlarni izohlab shunday deydi: —Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor va men ishonaman, Xudo xoxlasa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham bo'ladi.

Bu ezgu maqsad yo'lida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar davlatimiz siyosatining diqqat markazida turibdi. Haqiqatan ham bugungi kunda orzu-havaslar ro'yobga chiqa oladigan muhit yuzaga keldiki, ana shu imkoniyatlardan samarali foydalana olsak, barcha niyatlarimiz ro'yobga chiqishi aniq, albatta.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sh.M. Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T: —O'zbekiston, 2018. – B.89. 115
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent:O'zbekiston, 2017. – 482 b.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.–T: G'.G'ulom nashriyoti, 1993.–160b.
4. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. – T: Yozuvchi, 2001. – B. 38.
5. Abu Rayhon Beruniy. —Qadimgi xalqlardan qolgan èdgorliklar||. – T: Fan, 1972. – B. 68.
6. Ибн Сино. Изб. Филос. Произведения.–Москва: Наука, 1980.– 478 с.
7. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar, T 1. - T: Fan, 1968.– 486 b.
8. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.
9. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.
10. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.
11. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.
12. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). NEYRON TARMOQLARNING TASNIFI. Scientific Impulse, 1(3), 757-763.
13. Hamidullo o'g'li, T. H., & Kamolovich, B. E. (2023). IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI. Scientific Impulse, 1(7), 648-653..
14. Hamidullo o'g'li, T. H. TA'LIM TIZIMIGA MICROSOFT OFFICE 2003 VA 2020 DASTURLARINI QO 'LLANILISHI VA IMKONIYATLARI. Научный импульс, 362.
15. Hamidullo o'g'li, Tursunov Hojiakbar. "TA'LIM TIZIMIGA MICROSOFT OFFICE 2003 VA 2020 DASTURLARINI QO 'LLANILISHI VA IMKONIYATLARI." Scientific Impulse 2.13 (2023): 353-357.
16. Hamidullo o'g'li, T. H., & Kamolovich, B. E. (2023). IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI. Scientific Impulse, 1(7), 648-653.
17. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Т: Фан, 1971. – Б. 103.
18. Амир Темур. Темур тузуклари.–Т:Наврўз, 1996. –81 б.